

Iqtidorli YOSHLAR festivali

TAHRIRIYATDAN
QO'NG'IROQ
QILYAPMIZ



Respublikamizning barcha viloyatlarida «Kamalot» yulduzlari bolalar ijodiyoti festivalining hududiy bosqichlari bo'lib o'tmoqda. Jumladan, O'zbekiston Davlat konservatoriyasida ushbu tanlovning Toshkent shahar bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda poytaxtimizning barcha tumanlari-

dan kelgan g'olib o'quvchilar qatnashdi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar Kengashi, Toshkent shahar xalq ta'limi hamda Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirida o'qituvchilar, ota-onalar hamda o'quvchilar ishtirok etishdi.

(Davomi 8-betda)

Surxondaryoga yo'lga tushish oldidan Sariosiyo tuman XTMFMTTE bo'limi rahbari Ahmadjon Boboyevga qo'ng'iroq qildik. Har doimgidek o'ktam ovozdagi javobdan ko'nglimiz quvna, «Obuna - 2017» borasida gurunlashdik.

«Tong yulduzi» gazetasi har bir soni o'quvchilarimiz qo'liga o'z vaqtida yetib keladi. Biz qo'shimcha darslarimizda ijodkor o'quvchilarga o'z minbari bo'lgan gazeta doimo hamroh bo'lishini bot-bot ta'kidlaymiz. Gazeta har bir sinfxonaga kirib borsa, ijodkor o'quvchilar soni yanada ko'payadi. Respublika miqyosida o'tkaziladigan tanlovlarda qatnashayotgan iqtidorli o'quvchilarning ijodiy ishlari respublika nashrlarida chop etib kelinmoqda. Bir-birlaridan o'rnak olayotgan minglab o'quvchilarimiz «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lmoqda, - deydi suhbatdoshimiz.

Ha, haqiqatan sariosiyoликlar ta'lim sohasida bor imkoniyatlardan unumli foydalanib, bilim egallash sohasida peshqadamlikni qo'ldan bermaslikka intilmoqdalar. Ularning gazetamizga bo'lgan qiziqishlaridan ham ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi.

Axtamqul
KARIMOV
yozib oldi



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 315-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Dilyora Turdisheva va Mirzo Ulug'bek tumanidagi 273-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Aliakbar O'tkirov ham tanlovda o'z iste'dodlarini namoyish etishdi.

Aziz o'quvchilar!

«TONG YULDUZI»

Nashr
ko'rsatkichi -

198

gazetasiga 2017-yil uchun obuna mavsumi davom etmoqda!

Siz maktab kutubxonasi yoki uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida obuna bo'lishingiz mumkin.



Xabaringiz bor, shu yilning 4-dekabr sanasida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Otabek ABDUG'ANIYEV bilan ushbu muhim siyosiy tadbirning o'tkazilishi, unga ko'rilayotgan tayyorgarliklar haqida suhbatlashdik.

SAYLOV – DEMOKRATIYA KO'ZGUSI

– Otabek aka, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining mamlakatimiz hayotida tutgan o'rnini haqida aytib o'tsangiz...

– Yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish va demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish yo'lida qator islohotlar o'tkazilayotgan ekan, bunda, albatta, xalqning xohish-irodasi, orzu-intilishlarini o'zida ifoda etadigan saylovlarning ahamiyati muhim o'rin tutadi. Chunki saylov demokratik davlatning ajralmas belgisi.

Mamlakatimizning har bir fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida o'zi tanlagan nomzodga ovoz berish orqali yurt kelajagiga daxldor bo'lgan qarorni qabul qiladi. Bu esa saylovning naqadar muhim siyosiy jarayon ekanini ko'rsatadi.

Quvonarlisi, mustaqilligimizning 25 yillik taraqqiyoti mobaynida yurtimizda jahon hamjamiyatida umume'tirof etilgan zamonaviy demokratik me'yor va prinsiplarga to'liq javob beradigan saylov tizimi shakllandi.

– **Kimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanish huquqiga ega?**

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti besh yil muddatga saylanadi.

– **Kimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash huquqiga ega?**

– O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish huquqiga ega. Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoriga, irqiy va milliy mansubligiga, jinsi,

ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga, mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita va bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz, deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sudning hukmiga muvofiq ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashmaydilar.

– **Bu galgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida nechta siyosiy partiya o'z nomzodi bilan ishtirok etmoqda?**

– Saylovga to'rtta siyosiy partiya o'z nomzodini qo'ygan. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Shavkat Mirziyoyev, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan Sarvar Otamuratov, Xalq demokratik partiyasidan Hotamjon Ketmonov, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan Karim Umarovning nomzodlari ko'rsatilgan.


– **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillar asosida o'tishi uchun qaysi xalqaro tashkilotlar o'z kuzatuvchilarini yuborishi rejalashtirilgan?**

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining xalqaro kuzatuvida YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, MDH davlatlari, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning vakillari ishtirok etishi kutilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom hamkorlik tashkiloti va Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining xalqaro kuzatuvida ishtirok etish uchun rasman taklif etilgan.

Sa'dullo TURSINOV suhbatlashdi

«INFOLIB-2016» – V Milliy axborot-kutubxona haftaligi O'QUVCHINING AXBOROT MADANIYATI ni oshirishga xizmat qiladi

Bu tadbir 24–31-oktyabr kunlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida bo'lib o'tadi.



N. NORBOEYEV o'lgan surat

Haftalikni o'tkazishdan maqsad, eng avvalo, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, madaniy-ma'naviy merosimizni asrash, yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, axborot-kutubxona foydalanuvchilariga internet orqali sifatli xizmat ko'rsatish va ma'rifat maskanlarining ijtimoiy-madaniy

rolini oshirishdan iboratdir.

Bu yilgi haftalikning o'ziga xosligi shundaki, turli vazirlik va idoralar tarkibidagi axborot-kutubxona maskanlari faoliyatini atroflicha o'rganish va tahlil etish, ilg'or ish tajribasini ommalashtirishdir.

«Mustaqillikning 25 yili: mintaqalar rivojlanishi dinamikasi» nomli videomuloqot, «Eng yaxshi axborot-kutubxona muassasasi – 2016» tanlovi va dolzarb mavzulardagi trening kabi tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi, YUNESKoning mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamkorligidagi «O'quvchining axborot madaniyati» nomli o'quv-metodik kompleks taqdimoti 1–4-sinf o'quvchilarining kitobxonlik, internet va boshqa manbalardagi ma'lumotlardan foydalanish madaniyatini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, «ZiyoNET» tarmog'ida masofaviy ta'lim vositalari nomli o'quv dasturlar taqdimoti umumta'lim maktab o'quvchilarini qiziqtirishi, shubhasiz.

Bundan tashqari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, she'rxonlik, musiqa kechalari, yangi adabiyotlar taqdimoti, yozuvchi va shoirlar, el ardog'ida gi san'atkorlar va sportchilar bilan uchrashuvlar kitobxonlarga manzur bo'lmoqda.

Nozima JAVHAROVA

Kelajaging o'z qo'lingda

Yaqinda maktabimizda voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, OITS, giyohvandlik va alkogolizm kabi yomon illatlarning oldini olish maqsadida davra suhbatlari o'tkazildi.



Unda maktab hamshirasi Sh. Qosimshayxova so'zga chiqib, XXI asr vabosiga aylangan OITS, giyohvandlik va alkogolizmning inson ruhiyati va sog'ligiga, ayniqsa, voyaga yetmagan o'quvchi-yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, o'z vaqtida oldi olinmasa, yomon kasalliklarga olib kelishi haqida tushuntirishlar berib o'tdi.

Shundan so'ng o'quvchilar uchun maxsus tayyorlangan so'rovnomalardan tarqatildi. Ulardan yig'ib olingan so'rovnomalardan so'ng «OITS nima?» nomli videorolik namoyish etildi. U orqali o'quvchilar berilgan savollarga qay darajada javob berganliklarini bilib oldilar.

So'ngra mazkur mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida bahs-munozara o'tkazildi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislariga murojaat etdilar.

Davra suhbatlari orqali yoshlar o'z bilim va ko'nikmalarini boyitishdi.

Muhsina MIRZAYEVA, poytaxtimizdagi 276-umumta'lim maktabi o'quvchisi, Shayxontohur tumani «Kamolot» YOIH sardori

Biz Surxondaryo deganda, g'ururi tog'laridek baland, mardlik va matonatni yuksak qadrlaydigan, Alpomishdek pahlavon o'g'lonlar, Barchinoydek barno qizlarni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan, har qanday sharoitda ham o'zligiga, o'z qadriyat va urf-odatlariga sodiq bo'lib yashaydigan, tanti va mehnatkash elni tushunamiz.

Islom KARIMOV

ALLOMALAR ULG'AYGAN ZAMIN



Buyuk allomalar va pahlavonlar yurti Surxondaryoga safarimiz bu yil oltin kuz fasliga to'g'ri keldi. Bu sehrli go'sha odamlarining fe'l-atvori ham dasht-u dalalari kabi keng, tog'lar kabi zalvorli. So'nggi yillarda voha yoshlarining turli sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham anchagina salmoqli.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Alisher PARDAYEV bilan muloqotimiz chog'i o'quvchilarning qo'lga kiritayotgan yutuqlarining asosiy omillari haqida fikr almashdik.

Boshqarma tizimida ayni chog'da 860 ta umumta'lim maktabi, 289 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 15 ta «Barkamol avlod» markazi, 17 ta musiqa va san'at maktabi, 15 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, 1 ta Mehribonlik uyi, 1997 ta ta'lim muassasalari zamonaviy talablar darajasida faoliyat yuritmoqda.

Viloyatimiz bo'yicha joriy yilda dasturga asosan 40 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari belgilangan edi. Ayni damda bu ish yuqori sifat darajasida nihoyasiga yetkazilmoqda. O'z navbatida, yaratilgan shart-sharoitlarga javoban o'quvchi-

lar ham turli yo'nalishlarda ko'plab yutuqlarga erishmoqda. «Bilimlar bellashuvi»ning 3-bosqichida g'olib bo'lgan 28 nafar o'quvchimiz Respublika bosqichida ishtirok etib, 6 nafari faxrli o'rinlarni egallashga

muvaffaq bo'ldi. Termiz shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Jasur Mirzayev rus tili fanidan, Angor tumanidagi 3-IMI 8-sinf o'quvchisi Xudoysukur Jo'rayev fizika fanidan 2-o'rinni egalladi. Denov tumanidagi 17-IMI 7-sinf o'quvchisi Shohjahon Qo'ziyev tarix fanidan, Angor tumanidagi 3-IMI 7-sinf o'quvchisi Azizbek Tursunov fizika fanidan, Sherobod tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Ma'mura Jovliyeva ingliz tili fanidan, Jarqo'rg'on tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Sherzod Norqobilov ingliz tili fanidan 3-o'rinni egalladi. Shuni ham alohida ta'kidlashni

istardimki, ustozlar barcha sohada shogirdlariga chin ma'noda ibrat bo'lmoqdalar. «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanloving Respublika bosqichida ishtirok etgan o'qituvchilarning uch nafari 1-o'rinni egallashdi.

Musiqa va san'at maktablari o'quvchilari Respublika va xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, sovrindorlar safidan munosib o'rin egallab kelayotgani ham bu sohaga qaratilgan e'tiborning yorqin namunasidir.

Yoshlarning ma'nan va jismonan sog'lom bo'lishlari bugungi kunning yuksak yutuqlaridan biriga aylangan. Ayni chog'da viloyat xalq ta'limi tizimida 27 ta sport turi bo'yicha to'garaklar muntazam faoliyat olib bormoqda. Mazkur to'garaklarda o'quvchi-qizlar ko'pchilikni tashkil qilishi ham diqqatga molikdir. O'quvchilarning tuman, viloyat, respublika va xalqaro musobaqalardagi yutuqlari salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

Istiqlol sharoifati tufayli mamlakatimiz maktablari jahon andozalari darajasida bo'y ko'rsatdi. Yoshlarimiz ham jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini sharaf bilan ko'klarga ko'tarmoqdalar. Surxondaryolik yoshlar esa bu borada doimgidek ibrat namunasi bo'lishlariga ishonamiz.



NAVOIYDAN 70 G'AZAL

- Sariosiyoda g'azalxon o'quvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda, - deydi Sariosiyo tuman XTMFMTE bo'limi uslubchisi Davlat aka Mahmudov.



Biz maktablararo mushoira tanlovini tashkillashtirganmiz. Tanlovda eng kamida Navoiy hazratlaridan yetmishta g'azal bilgan o'quvchi ishtirok etadi. Mushoira o'tkazishdan maqsad she'rxon o'quvchilar safini yanada kengaytirish, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan bebaho merosidan farzandlarimizni ko'proq bahramand etishdir.

Davlat akaning so'zlari bejiz emasligini tumanda til bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tadbir davomida amin bo'ldik. Ko'zlari chaqnab turgan o'quvchilar biri-biridan qolishmay jaranglatib she'r o'qiyotganda, ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. She'riyatning beqiyos bo'stonida sayr etgan g'azalxon farzandlarimizga ko'z tegmasin, degimiz keldi.

Sahifani AXTAMQULI va Yusuf FAYZULLO tayyorlashdi

Salom, mening uzoq yillik qadrdonim, sirdoshim «Tong yulduzi» gazetasi!

HANUZ MEHRIM BO'LAKCHA

Ilk mashqlarimni rag'batlantirgan, chekka qishloqdan jo'natilgan bo'sh maqola-yu she'rlarimga e'tibor berib, chop etgan aziz ijodkorlar.

Sizlarga jo'n satrlar bitgan o'sha jajji qiz endi ulg'aydi. Viloyat va respublika gazetalarida ko'plab ijod namunalarim bosildi. Ko'rik-tanlovlarda qatnashdim. Katta muvaffaqiyatlarga erishishimda tahririyat xodimlarining hissasi beqiyosdir. Bolalarni yaxshi ko'rardim. Shukur, hozir o'zim ham ikki o'g'ilning baxtli onasiman.

Hanuzgacha sevimli nashrimni qo'limga olsam, yuragim hapriqib ketadi. Farzandlarim ham o'z gazetasi bilan yaqin do'st bo'lishlarini xohlayman.

Komila ABDULLAYEVA, Termiz shahri

MEHRIBONIM, QUYOSHIM O'ZING



Mehri cheksiz, bag'ri keng xalqim, Mehribonim, quyoshim o'zing. Vatani, deya jo'sh urar qalbim, Tilim bot-bot takrorlar so'zing.

Bog'laringdir jannatga qiyos, Tog'laring-ku osmon quchadi. Har go'shangda baraka qiyyg'os, Oftobing ham ziyo sochadi.

Tupro'g'ingdir ko'zga to'tiyo, Shu tuproqqa fido bo'lsin jon. Olam ichra o'zingsan tanho, Gulla, yashna, hur O'zbekiston!

Dildora SHAYDULLAYEVA, Qumqo'rg'on tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

Tahririyatimizga buvisi hamrohligida kirib kelgan Maftuna Jamshidova poytaxtimizdagi xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan 59-umumta'lim maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi ekan. Chiroyli jilmayib turadigan qizimizdan olib kelgan biror ijod namunasini ko'rsatishni so'radik. Uning «Menda bunday narsalar hozircha yo'q», deganidan biroz ajablandik ham. Ammo buvisi Ma'suda opa bilan gurungimizdan so'ng ularni bekorga kelishmaganiga amin bo'ldik.



N. SULTONOV o'lgan surat

– Nabiram matematika, rus tili va adabiyoti, jismoniy tarbiya fanlariga juda qiziqadi, – deydi onaxon yuzlari yashnaganday bo'lib.

– O'zbek va rus tillari bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning doimiy ishtirokchisi. Sportning tennis, basketbol to'garaklariga qatnashadi. Nimagadir o'zidagi iqtidorni namoyish etishga imonadi. Yaqinda bir tanishim nabirasi «Tong yulduzi»

MAFTUNANING O'Z GAZETASI BOR

gazetasini har bir sonini o'qiy boshlaganidan buyon o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, katta yutuqlarni qo'lga kiritayotganini zavq bilan aytgan edi. Ochig'i, rosa havasim keldi. Nabiram ham ular qatorida bo'lishini juda-juda xohlayman. Shuning uchun uni «Tong yulduzi»ga 2017-yil uchun obuna qildim.

Muloqotimiz chog'i Maftunaning uyida katta kutubxona borligi, u yerdan uning ham ellikdan ziyod kitoblari joy olganini bilib oldik. Maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga o'zbek, rus, xitoy tillarini puxta o'rganmoqda. Ammo u bu bilan cheklanib qolmoqchi emas. Yanada ko'proq chet tillarini o'rganish niyatida. Bu borada «Tong yulduzi» uning yaqin do'st maslahatgo'yi bo'lishiga ishonadi. Tahririyat esa bunday o'quvchilarni hamisha qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Yusuf ABDULLAYEV

Respublikamizning umumta'lim maktablarida oktyabr oyi – «Ona tili va adabiyot fani oyligi» deb belgilangan. Ana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi.

FAN OYLIKI

o'quvchilarni izlanishga undaydi



SAN'ATGA OSHUFTA QALBLAR

Musiq va san'at yosh avlodning estetik didi shakllanishi va san'atning sirli olamidan zavq-shavq olib yashashida muhim o'rin tutadi. Bunga Jizzax shahrida faoliyat yuritayotgan Musiqa va san'at maktabini ham misol tariqasida keltirish mumkin.

Maktabga kirib kelganimizda, uch qavatli chiroyli binoning shinam, sarishta o'quv xona va zallarida mashg'ulotlar o'tilayotgan ekan.

Maktabning Jizzax shahridagi 29-Mehribonlik uyida ham tarmog'i bo'lib, u yerda 32 nafar o'qituvchi tarbiyalanuvchilarga musiqa va san'at yo'nalishi bo'yicha ta'lim berib kelyapti.

– O'qituvchi va o'quvchilarimiz shahar, viloyat, respublika hamda xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishadi, – deydi biz bilan suhbatda maktab rahbari Gulzoda Begbo'tayeva, – Jumladan, shu yilning iyun oyida So-

chida o'tkazilgan Xalqaro ko'rik-tanlovda 4-sinf o'quvchisi Murodjon Ilhomov vokal yo'nalishi bo'yicha I-darajali diplom bilan taqdirlangan bo'lsa, 3-sinf o'quvchisi Zarnigor Quvvatova esa joriy yilda Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan ko'rik-tanlovda fortepiano yo'nalishi bo'yicha 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

5-sinf o'quvchisi Hamidulla Turdiqulov 2015-yilda Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan X Xalqaro tanlovida akademik vokal yo'nalishi bo'yicha yaxshi natijani qo'lga kiritdi. Maktabning yana bir iste'dodli o'quvchisi Hojiakbar Tojiboyev estrada xonandachiligi bo'yicha shug'ullanadi. 2016-yil may oyida u «Yagonasan, muqaddas Vatan!» respublika ko'rik-tanlovida 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Musiqa va san'at maktabida yana ko'plab iqtidorli, sohir ovoz egalari Rashid Savanov, Mirjalol Ahmedov, Jamshid Bekmurodov kabi tajribali ustozlaridan saboq olib, san'atning sirli olamini kashf etish hamda respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlarda yanada yuksak cho'qqilarni zabt etish yo'lida izlanishlar olib borayaptilar.

Musiqa va san'at maktabidan olam-olam taassurotlar olib, yo'lga tushdik.

Ancha yo'l yursak-da, yosh san'atkorlar tomonidan ijro etilayotgan musiqa sadolari qulog'imiz ostida uzoq vaqt jaranglab turdi.

Oylik doirasida ona tili va adabiyot fanlaridan ochiq darslar, «Ona tilim – jon-u dilim» mavzusida devoriy gazeta, buklet, referat, insholar tanlovlari, she'riyat kechalari, ijodkorlar bilan adabiy uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek, «Til – millat ko'zgi» mavzusida adabiy kecha ham tashkil etildi. Unda maktab o'qituvchi va o'quvchilari faol ishtirok etdilar. Ilm dargohida faoliyat olib borayotgan «Kichik teatr studiyasi» to'garagi a'zolari Dono Masharipova rahbarligida atoqli adib G'afur G'ulom qalamiga mansub «Shum bola» asari asosida sahna ko'rinishini tayyorlab, tomoshabinlarni manzur etishdi.

Insholar tanlovida 9-«A» sinf o'quvchisi Sevinch Yoqubova, 9-«B» sinfidan Farangiz Berdiyevaning yozgan ijodiy ishi yuqori baholandi. 8-«A» sinf o'quvchisi Sevvara Yu'ldosheva «Men sevgan ustoz» mavzusidagi inshosi bilan tumanda muvaffaqiyatli qatnashib, shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Shuningdek, 6-«A» sinf o'quvchisi Amina Imomova o'zining Vatan, ota-ona, maktab hayoti haqida yozgan she'rlari bilan 1-o'rinni qo'lga kiritdi va maktabning maqto'v yorlig'i bilan taqdirlandi.

Bunday kechalarni tashkillashtirishda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Baxtiyor Berdiyev, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilaridan Dilorom Jalilova, Zarifa Tosheva, ayniqsa, faol bo'lishdi.

Dilorom HOTAMOVA

KITOB DAN YAXSHI DO'ST BO'LMAS

Bo'sh vaqtlarida kitob o'qishni xush ko'radigan tengdoshingiz Sarvinoz Alimqulova Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi 70-umumta'lim maktabining 6-sinfida tahsil oladi.

– Menga sinf rahbarim Muqaddas opa Abduraimovaning ma'naviyat soatlaridagi mehr-oqibat, orastalik, Vatan mavzularidagi hikoyalari katta taassurot qoldiradi. Darsdan keyin dugonalarim bilan ustozimizning uyiga tez-tez borib turamiz. Xonadonida mingga yaqin kitoblardan iborat shaxsiy kutubxonasi bor. Biz bilan o'qigan asarlarimiz qahramonlari haqida suhbatlashib, tushunmagan joylarimizni tushuntiradilar, o'qish uchun kitoblarni beradilar. Yaqinda Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» kitobini o'qidim, – deydi biz bilan suhbatda Sarvinoz.

Tengdoshingiz bilan muloqotimiz maroqli kechdi. Bunday yoshlar safi kengayib borayotgani esa kishini quvontiradi.

Yusufjon HAMDAMOV

Muzaffar AHMEDOV

31-oktyabr 2016

«MAHORAT MAKTABI» O'Z FAOLIYATINI BOSHLADI

Joriy yil ushbu umumta'lim maktabining tash- cha tadbirlar, ijodiy uchrashuvlarda, «Kamalak» yulduzlari Respublika bolalar ijodiyoti festival-ida faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, maktabda muntazam ravishda fan va sport to'garaklari faoliyat yuritayotir. Ushbu to'garaklariga o'quvchilarning deyarli 90 foizi qamrab olingan. Quvonarlisi, «Umid nihol-lari» sport musobaqasida maktab o'quvchilari faxrli o'rlnlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

cha tadbirlar, ijodiy uchrashuvlarda, «Kamalak» yulduzlari Respublika bolalar ijodiyoti festival-ida faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, maktabda muntazam ravishda fan va sport to'garaklari faoliyat yuritayotir. Ushbu to'garaklariga o'quvchilarning deyarli 90 foizi qamrab olingan. Quvonarlisi, «Umid nihol-lari» sport musobaqasida maktab o'quvchilari faxrli o'rlnlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

– Matematika, rus tili, ingliz tili va jismoniy tarbiya fanlariga qiziqaman, – deydi 6-«D» sinf o'quvchisi Abduboriy O'tkirov. – Katta bo'lsam, harbiy bo'lmoqchiman. Harbiylar irodali, sog'lom bo'lishlari kerak. Shuning uchun yaqinda karate to'garagiga a'zo bo'ldim.

O'quvchilarning niyatlari ulug'. O'z kasbining fidoyilari bo'lgan ustozlardan tahsil olayotgan bu yoshlarning orzulari, albatta, ushulishiga ishonamiz.

Sh. KAZAKBAYEV



TAHRIRIYATIMIZGA TASHAKKURNOMA KELDI

Yaqinda Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 61-umumta'lim maktabi rahbari Gulnora opa Islomova nomidan tahririya-timizga tashakkurnoma keldi. Fidoyi ustozning nashrimizga bo'lgan yuksak e'tibori-dan boshimiz ko'kka yetdi.

Bugun ana shu maktab faoliyati, bu yerda tahsil olayotgan ilimga chanqoq o'quvchilarning ta'lim sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida hikoya qilishni lozim topdik.

O'ylaymizki, yosh avlod kamoloti yo'lidagi o'zaro hamkorligimiz bundan keyin ham davom etadi.

Ayni paytda ta'lim maskanida 69 nafar malakali pedagog xodim 1608 nafar yosh avlodga bilim bermoqda. Maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari shahar seminarida faol ishtirok etgani uchun ilm dargohida «Mahorat maktabi» faoliyat boshladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi Natalya Levanova «Yil o'qituvchisi» Respublika ko'rik-tanlovida 3-o'rinni, Axborot-resurs markazi rahbari Nargiza Normurodova «Eng namunal» Axborot-resurs markazi» Respublika tanlovida 2-o'rinni, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkilot yetakchisi Muyassar Tavchiyeva esa tumanning «Yil yetakchisi» loyihasi g'olibiga aylandi.

Maktab o'quvchilari, Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan o'tkazilgan bar-

LESSON 111

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

HAPPY BIRTHDAY! (Tug'ilgan kuningiz bilan!) Vocabulary base



Greetings! – Bayramingiz bilan!
Happy birthday! – Tug'ilgan kuningiz bilan!
My best wishes! – Eng samimiy tilaklar bilan!
Congratulations! – Tabriklayman!
Congratulations on your victory! – G'alabangiz bilan tabriklayman!
I wish you happiness! – Men sizga baxt tilayman!
I wish you luck! – Omad tilayman!

I wish you a health! – Sizga sog'lik tilayman!
All the best! – Hamma ezgu tilaklar sizga!
This is for you. – Bu sizga.
Well done! – Barakalla!
Keep well! – O'zingizni asrang! Sog' bo'ling!

Umida G'OFUR qizi

Joke

ABSOLUTELY RIGHT

Viktor GALYAVKIN

– Are you having breakfast in the classroom?
Valya, quickly hidden his breakfast under the table.
– What will happen? – said the teacher – if all the pupils have breakfast in the classroom.
– Class was noisy. Because everyone wanted to say, what would happen.
Kolya said:
– It will be funny!
Misha said:
– It will be munching!
Masha said:
– All will be well-fed!
– And what will not happen?
– asked the teacher.
Class was silent. What will not, no one knew.
Teacher wanted, already answer herself. Suddenly, someone shouted.
– Lesson will not!
– Absolutely right! – said the teacher.



Translated from russian by Mohira YO'LDOSHEVA

Parts of speech

NOUN (Ot)

Shaxs yoki buyumni ifodalovchi **who?** (kim?) va **what?** (nima?) so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlar turkumi ot deyiladi: *a man, an engineer, a house.*

Ingliz tilida otlar oldidan odatda artikl va predlog keladi. Ular otlarning asosiy belgisidir: *a table, the table, on the table.*

Otlar birlik va ko'plikda kelishi mumkin: *a table – tables, a book – books.*

Otlarda ikkita – bosh va qaratqich kelishi bor: *worker – worker's, father – father's.*

Otlar gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol vazifalarida keladi.

Shuningdek, ingliz tilida otlar donalab sanaladigan va donalab sanalmaydiganga bo'linadi. Donalab sanaladigan otlarni sanab bo'ladi. Ular birlik va ko'plikda ishlatiladi: *a pen – two pens, three pens.*

Moddiy va mavhum otlar donalab sanalmaydigan otlardir. Ular faqat birlikda ishlatiladi:

*Coal is produced in many districts of our country.
Knowledge is power.*

Donalab sanalmaydigan otlar ro'yxati:

accommodation – turar joy, boshpana	scenery – manzara
advice – maslahat	traffic – qatnov
baggage – yuk	weather – ob-havo
bread – non	air – havo
furniture – mebel	meat – go'sht
money – pul	physics – fizika
homework – uy ishi	advertising – reklama qilish
luck – omad, baxt	mathematics – matematika
luggage – yuk	politics – siyosat
information – ma'lumot	damage – nosozlik, buzilish
sand – qum	work – ish
measles – qizamiq	economics – iqtisod
mumps – tepki	news – yangilik(lar)
food – oziq-ovqat	permission – ruxsat
soap – sovun	progress – yutuq, muvaffaqiyat
chaos – tartibsizlik	

Time so'zi vaqt ma'nosida donalab sanalmaydigan ot sifatida ishlatiladi.

Time so'zi marta ma'nosida esa donalab sanaladigan ot bo'lib keladi.

e.g. We have **no time**, be quick!
She has been late for class **six times**.

Your teacher DINORA

Vatan ishq

Gavhar orasida marjonsan, elim,
Ko'ksi tog'dek baland osmonsan, elim.
Sen mening onamsan, bolangman, yurtim,
Mudom xizimatingga men shayman, Vatan.

Bog'ingda mevadan ortig'i yo'qdir,
Dalalar oq oltin – oppoq paxtazor.
Sen bilan doimo bu ko'nglim to'qdir,
Sening ishqing bilan yurdim beqaror.

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Konstitutsiya

Baxtimiz Qomusisan,
Yurtning or-nomusisan.
Qonunlar majmuasi,
Orzularim mevasi.

Kelajak yulduzisan,
Hayotimiz charog'on.
Sen borsan – adolat bor,
Biz yashaymiz farovon.

Parvina MUHIDDINOVA,
Buxoro shahridagi 3-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

USTOZGA TA'ZIM

(Ustoz Toshtemir Turdiyevga)

Shogirdlar yutug'in ko'rib quvongan,
Sizdayin ulug'ni ko'rmadim, ustoz.
Ilhom cho'qqilarin zabt etganimda,
Daldalaringizdan qildim men parvoz.

Ma'rifat bog'iga etdingiz oshno,
Shundan yuragimda ijodning zavqi.
Axir she'r, san'at va ijoddan ulug',
Nima bor olamda zavqli va shavqli?!

Bir kun ishonchingiz oqlasam, deymen,
Oliy manzillarga qadab bayrog'im.
Shunda sizga ta'zim etib degayman,
Mening ustozimsiz, qalbim ardog'!

Nafisa NURMUHAMMADOVA,
Surxondaryo viloyati, 3-sonli Denov
akademik litseyi o'quvchisi



MUNAVVAR OLAM

Jondan aziz, qadrdon yurtim,
Tuproq'ingni ko'zimga surtgum.
Seni juda yaxshi ko'raman,
Men eng baxtli qizing bo'laman.

Sen borsanki, ko'nglim xotirjam,
Mehrning doim etib yurgum yod.
Sening bilan munavvar olam,
Sening bilan nurafshon hayot.

Ruxsora SHOKIRJONOVA,
Toshkent shahri, Olmazor
tumanidagi 185-umumta'lim
maktabining 3-«A» sinf
o'quvchisi



Maktabda o'qish boshlanganiga ham 2 oy bo'ldi. Akbar yerga tushgan xazonlarga qarab xayol surib borardi. Maktab hovlisida g'ujg'on bo'lib turgan o'rtoqlarini ko'rdi-yu, qadamini tezlatdi. Sinf-doshlari Jasurning atrofida girdikapalak bo'lib, uning yangi kiygan krossovkasini tomosha qilishardi.

– Vuy, buncha chiroyli, yonidagi chiroqlarini qara, rang-barang bo'lib yonarkan-a... – dedi Odil.

– Men ham shunaqasidan oldiraman. Jasur, qaysi do'kondan oldinglar? – Javlon Jasurdan do'kon raqamini ola boshladi.

Akbarning negadir kayfiyati tushib ketdi. Bozorlik qilib yurishganida, dadasining puli yetmagani tufayli oddiygina krossovka olishgandi. Jasurnikining oldida o'zini juda xunuk ko'rinish ketdi. Uning ham shunaqa oyoq kiyimi kiygisi keldi. Stadion bo'ylab yugurayotgan sinfdoshlarini tomosha qilarkan, ko'zlari har safar qadam bosganda turli chiroqlari yonib-o'chayotgan Jasurning krossovkasida bo'ldi. Shu topda dadasidan ham, oyisidan ham juda xafa bo'lib ketdi. Doim «Hali yoshsan, shunaqasi ham bo'laveradi», deyishadi. Jasurning otasi esa tadbirkor, unga mazza... xohlagan kiyimini kiyadi. Darslar tugab, hamma uy-uyiga tarqaldi. Kayfiyatsiz kirib kelgan o'g'lini ko'rgan Sayyora opa nima gapligini so'radi. Shu topda Akbar xayoliga kelgan fikrdan o'zi ham quvonib ketdi:

– Krossovkam oyog'imni siqyapti, shunga jismoniy tarbiya darsiga qatnasha olmadim. Ustozim «ikki» qo'ydi.

– Nega siqadi, axir kiyib ko'rib olganding-ku...

– Bilmadim, oyi, maktabga bormayman...

Akbarning bu xarxashasi kechgacha



BIR JUFT POYABZAL

(Hikoya)

davom etdi. Kechqurun ishdan kelgan dadasi oyi bilan gaplashib olgach, o'g'lini yoniga chaqirdi:

– Akbar, kichkinasidan olib qo'yibmiz-da, hechqisi yo'q, ertaga olib borib, iltimos qilib ko'raman, kattasiga almashtirib berishar...

– Yo'q, dada, menga umuman boshqacha krossovka kerak, – u shunday deya Jasur aytgan do'kondagi matohning ta'rifini keltirdi.

– Maktabga shunaqa krossovka kiyib kelish mumkin ekanmi?

– Bilmadim, dada, men ham shunaqasidan kiyishni istayman. Axir Jasurga qachongacha havas qilaman...

O'g'lining gapga ko'nmasligini tushungan ota u aytganini olib berdi. Ertasi kuni maktabdagi barcha o'rtoqlariga yangi krossovkasi bilan toza maqtandi. Darslar tugagach, sinf rahbari majlis o'tkazdi. Majlisda gap maktab formasi haqida bordi.

– Maktabga Akbar, Jasur kiyib olgan krossovka bilan qo'ymayman, ertaga-yoq oyog'ingizda tufli bo'lsin. Bunaqasini maktabdan tashqarida kiyinglar, – deya qattiq talab qo'ydi o'qituvchi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Sovuq kunlar boshlanib, tez-tez yomg'ir yog'ardi. Bir kuni yomg'ir chelaklab quydi. Akbarning dadasi ishdan kech qaytdi. U dadasini eshik oldida kutib oldi, negadir gilamda ho'l oyoq izi paydo bo'lib qolgandi. Akbar bu holga hayron bo'ldi. Dadasining tufisini chetga olib qo'yarkan, ichi jiqqa ho'lligini ko'rdi. Shunda u o'zini qaysarligidan xafa bo'lib ketdi va uyga yugurib kirib dadasini qattiq quchoqladi:

– Dadajon, men sizni juda yaxshi ko'raman, judayam yaxshi ko'raman, meni kechiring...

Kechqurun uxlash uchun joyiga yotarkan, ko'zlaridan oqqan yosh yostig'ini ho'l qildi: – Bechora dadajonim, menga oyoq kiyim olib beribdi-yu, o'zini o'ylamabdi...

U xayoliga kelgan o'ydan quvonib ketdi. Anchadan buyon velosiped olish uchun ota-onasi tushlikka bergan pullarni yig'ib yurgandi. Oradan sal fursat o'tib, erta tongda ishga otlamayotgan dadasi ostonadagi yangi poyabzalga ko'zi tushdi va hayron bo'lib ayoliga qaradi...

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent matbaa-noshirlik
kasb-hunar kollejining 1-bosqich
o'quvchisi

YURTNING ASL O'G'LONLARI

Bolaligimda maktabga boshlash uchun qo'shni mahalladan o'tishga to'g'ri kelar, bu esa men-ga va tengqur do'stlarimga ancha qiyinchilik tug'dirar edi. Nega, deysizmi? Sababli, bizdan yoshi ancha katta bo'lgan bolalar yo'limizni to'sib qo'rqitishar, do'q-po'pi-sa qilishar edi. Shu sababli qo'shni mahalladan o'ta-yotganimizda juda ehtiyotkorlik bilan, hadiksirab tez o'tib ketardik.

Mamlakatimiz Istiqlolga erishgan dastlabki yillardan boshlab, avvalambor, fuqarolarimiz tinchlik-osoyishtaligi ta'minlandi. Buning uchun qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashning muhim bo'g'ini, el-yurt osoyishtaligining asosiy kafolati bo'lgan ichki ishlar idoralarida islohotlar o'tkazish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Moddiy-texnik bazasi tubdan mustahkamlandi, soha xodimlari jahon andozalariga mos texnikalar va aloqa vositalari bilan ta'minlandi. Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyida 25-oktyabr – Ichki ishlar idoralari xodimlari kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda IIV apparati sohaviy xizmatlari xodimlari, jurnalistlar hamda faxriylar ishtirok etishdi.



– Bugungi kasb bayramida 40 dan ortiq xodimlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. O'ylaymizki, bu rag'bat ularni yanada ruhlantirib, kelgusida xalqimiz osoyishtaligini saqlashda shijoat bilan xizmat qilishadi, – dedi biz bilan suhbatda IIV inson huquqlarini himoya qilish yuridik ta'minlash boshqarmasi ommaviy aloqalar bo'limi boshlig'i Zikrillo Ne'matov.

Taqdirlanganlar orasida eng yoshi «Mardlik» ordeni sohibi bo'lgan qahramonni suhbatga tortdik.

– Men Farhod Olimbekov, – deya o'zini tanishtirdi yosh xodim. – Bolaligimdan shu sohaga qiziqardim. Oiladagi 10 farzandning eng kenjasiman. Ikki akamga havas qilib, men ham katta bo'lsam, albatta, Vatan himoyachisi bo'laman, deb orzu qilardim. Sportning boks va qo'l jangi turlari bilan muntazam shug'ullandim. Bugun mening kamtarona mehnatim uchun berilgan «Mardlik» ordeni davlatimizning yoshlarga bergan yuksak e'tibori natijasidir, deb bilaman.

Farhod bilan suhbatlashganimda, uning ismi jismiga monand jismonan, ham aqlan yetuk o'g'lon ekanligiga amin bo'ldim.

O'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbida yurtga bo'lgan muhabbatni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamoliddin ABDULLAYEV

11 YOSHLI BOKSCHI

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi 5-umumta'lim maktabida tumandagi 7-bolalar va o'smirlar sport maktabi bilan hamkorlikda sportning futbol, shaxmat-shashka, voleybol, basketbol, stol tennis va badiiy gimnastika to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Hozirda 250 nafar o'quvchilar jalb qilingan maktab sportchilari o'tgan o'quv yilida «Umid niholari» sport musobaqalari hamda boshqa tanlovlarda sovrinli o'rinni qo'lga kiritishdi. Jumladan, 4-«B» sinf o'quvchisi Sardor Ahmadov Buxoro shahar 12-olimpiya zaxiralari DIMI boks birinchiligida 32 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, 2016-yil «Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlangan «Qishki ta'til» tuman birinchiligi, 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab Buxoro shahar birinchiligi hamda yurtimiz mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan tuman birinchiligida 1-o'rinni zabt etdi.

Erkin Toshev, Bahrom Tolibov va Shuhrat Huseynov kabi pedagoglar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sog'lomlashtirish konsepsiyasi doirasida yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantrishda tinimsiz izlanayotgan ustozlardan. Endilikda ta'lim maskani sportchilari 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun arafasida bo'lib o'tadigan shahar birinchiligiga qizg'in tayyorgarlikni boshlab yuborishgan.

Ulug'bek SAIDOV

«KAMOLOT» G'UNCHALARI

Joylarda tashkil-lashtirilayotgan bellashuvlar ham aynan shu maqsadga qaratilgan. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi, viloyat Xalq ta'limi, madaniyat va sport ishlari boshqarmalari hamkorligida Navoiy shahrida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida badiiy gimnastika bo'yicha «Kamolot» g'unchalari viloyat musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada 100 dan ziyod o'quvchi-qizlar o'zaro kuch sinashdilar. Navoiylik Marjona Abdurasulova, qiziltepalik Jasmina Jalolova, Sevvara Shodiyeva va Nigina Rinatova hamda Navbahor tumanidan Umida Kenjayeva o'z yosh toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdi. G'oliblar musobaqaning mamlakat bosqichida qatnashadi.

Zarnigor MUSAYEVA

BO'SH KELMA, SARDOR!

Sardor Namangan tumanining Tepaqo'rg'on qishlog'idagi 17-umumta'lim maktabining 1-sinfiga borganida, ota-onasi uni karate to'garagiga ham berishgandi.

Sardor G'aybullayev murabbiysi Muhriddin Rahimovdan ushbu sport sir-asrorlarini qunt bilan o'rgana boshladi. Ilk bor u vodiy ochiq chempionatida qatnashib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. So'ng, Farg'ona viloyatiga yoshlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada ham 1-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.

Sardor yaqinda O'zbekiston kubogi uchun o'tkazilgan turnirda va Namangan viloyatining Norin tumanida o'tkazilgan viloyat birinchiligida ham shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

Iqtidorli tengdoshingiz hozirda 7-«G» sinf o'quvchisi. Sinf rahbari Dilrom Nuriddinova unga onalarcha g'amxo'rlik ko'rsatib, doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Xonbibi HIMMAT qizi



Iqtidorli YOSHLAR festivali

(Davomi. Boshi 1-betda)

Yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, iqtidorli bolalar-ning iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlovning Toshkent shahar bosqichida 753 nafar iqtidorlilar ishtirok etdi. Ular 6 yo'nalish bo'yicha o'zaro bellashib, bilim va iste'dodini sinovdan o'tkazdi.

Tadbirida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar Kengashi raisi o'rinbosari – shahar «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi Bobur Mirzayev yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tufayli o'g'il-qizlar ko'plab xalqaro tanlovlarda munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallayotganini ta'kidladi.

Mazkur tanlov g'o-



liblari festivalning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Shavkat KAZAKBAYEV


Festivalda ishtirokchilar fortepiano, torli, zarbli, puflab chalinadigan musiqa asboblari, milliy va akademik qo'shiqchilik ijrochiligi, estrada, folklor va xor guruhlari, ball raqsi, milliy va zamonaviy raqs ijrosi, rangtasvir va amaliy san'at, gilamdo'zlik, kashtachilik bo'yicha iste'dodini namoyish etdi.

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 154-umumta'lim maktabi o'quvchisi Rahima Abdurazzoqova ko'rik-tanlovning milliy va zamonaviy raqs yo'nalishida ishtirok etib, «Tovus» raqsi bilan muxlislar olqishiga sazovor bo'ldi.



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

- Baliq ovlash anjomi
- Bosh kiyimi
- Juda issiq
- Sut mahsuloti
- O'tkirlovchi tosh
- Mustahkam



Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

SAN'ATSEVARLAR ARALANDI

Yur-timizni tom ma'noda, iste'dodlar mamlakati, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi-yangi iste'dodlarni kashf etayotgan ko'rik-tanlovlar ezgu maqsad yo'lida muhim omil bo'lmoqda.

Jumladan, Sirdaryoda «Istiqlol g'unchalari» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi hamda «Kasaba uyushmalari – bolalarga» aksiyasi doirasida viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbirida 150 dan ziyod 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar to'rt yo'nalish bo'yicha o'z iste'dod va salohiyatini sinovdan o'tkazdi.

An'anaviy ijrochilik yo'nalishida Guliston tumanidagi madaniyat va aholi dam olish markazining «Dehqon bolalari» ansambli, Baxt shahridan Shohjahon Abdug'aniyev estrada yo'nalishida, Guliston tumanidan «Lola» raqs jamoasi yakka va jamoa raqsi va ansambl cholg'u ijrochiligi yo'nalishida sirdaryolik xonanda Samandar Ismatillayev g'oliblikni qo'lga kiritdi.


Birinchiilikni qo'lga kiritgan yosh san'atkorlar tanlovning mamlakat bosqichida bellashadi.

Rustam NURMATOV

Olmali shirinlik

Olma juda foydali meva bo'lib, unda inson organizmi uchun be-takror hisoblangan temir moddasi mavjud. Shuning uchun ham har kuni ovqatdan keyin, albatta, olma yeyish tavsiya etiladi. Bu kechki uyqudan oldin tinchlantiruvchi xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan kun davomida toliqqan organizmni tongga qadar quvvatga to'ldiradi.

Bugun sizga o'rgatadigan olmali shirinligimiz shirinxo'r bolalajonlar uchun ayni quvvatlantiruvchi xususiyati bilan ajralib turadi.



Pazanda qizga!



Kerakli mahsulotlar: (4 kishi uchun)

4 dona olma, 4 dona turshak, 2 dona quritilgan olxo'ri (danaksiz), 8 dona yong'oq, 8 dona bodom, 100 gramm shakar, 20 gramm sariyog', 1 dona limon.

Tayyorlanishi: dastlab olmani ichidagi urug'lardan tozalaymiz. Turshak va olxo'ri qoqisini issiq suv bilan biroz yumshatib, mayda qilib to'g'raymiz. Unga maydalangan yong'oq, bodom va shakar qo'shilib, ustidan limon suvi siqiladi. Tozalangan olmalar ichiga turshakli aralashmani qo'shib, ustidan ozgina sariyog' qo'shiladi. So'ngra 180 darajada qizdirilgan gaz pechiga 30 daqiqaga qo'yiladi. Tayyor olmalar ehtiyotkorlik bilan olinib, lipochalarga solinadi, uning tagiga chiqqan suv esa ustidan quyiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALLOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMTU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25701
Buyurtma – S 7367

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08